

## ADABIY TA'LIMDA SAVOL O'QUV TOPSHIRIG'INING TASNIFIY XUSUSIYATLARI

**Rasulova Gulbaxor Kerimbaevna,**  
Toshkent Amaliy fanlar universiteti v.b.  
dotsenti  
E-mail: [grasulova@gmail.com](mailto:grasulova@gmail.com)

**Annotatsiya:** maqolada adabiy ta'limni rivojlantirish masalasi, xususan, o'quv topshiriqlarini takomillashtirish, adabiyot o'qitishda savol va topshiriqlari mazmunini tahliliy o'rganish, asar mohiyatini ochib beruvchi o'quv topshiriqlar ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslarini yaratish, o'quvchilar bilimni baholash mezonlarini ko'rib chiqish bo'yicha muhim tavsiyalar, xulosalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** adabiy ta'lim, ta'lim mazmuni, asar mohiyati, badiiy asar tahlili, o'quv topshiriqlari, savol, topshiriq, uy vazifasi, bilim, ko'nikma va malakalar.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы развития литературного образования, в частности совершенствования учебных задач, аналитического исследования содержания вопросов и задач в преподавании литературы, создания научно-методических основ разработки учебных задач, раскрывающих Сущность работы, оценка знаний студентов, изложены важные рекомендации и выводы по рассмотрению критериев.

**Ключевые слова:** литературное образование, содержание обучения, суть произведения, анализ художественного произведения, учебные задачи, вопрос, задание, домашнее задание, знания, умения и навыки.

**Abstract:** the article deals with the development of literary education, in particular, important recommendations, conclusions on improving educational tasks, analytical study of the content of questions and tasks in teaching literature, the creation of scientific and methodological foundations for the development of educational tasks that reveal the essence of the work, consideration of criteria for assessing students' knowledge.

**Keywords:** literary education, the content of education, the essence of the work, the analysis of the work of art, educational tasks, question, assignment, homework, knowledge, skills and qualifications.

O'zbek tilining ona tili va davlat tili sifatida o'qitilishi bo'yicha yanada keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bu sohada o'quv topshiriqlaridan foydalanish masalasida muayyan oqsoqliklar bor, jumladan, o'quv topshiriqlari mazmuni maxsus o'rganishni talab qiladi. Jahon til o'qitish metodikasida asosiy e'tibor o'quv topshiriqlarning sifatiga qaratiladi. O'quvchida nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish yoki shakllantirish bir bosqichli oddiy jarayon emas, shu sababli topshiriq yoki savollar ham bir xil bo'lmaydi. Faoliyatni tashkil etish bosqichi qancha bo'lsa, natijagacha bo'lgan jarayonda mashq, topshiriq va savollarning vazifasi ham shunchalik rang-barang bo'ladi.

Metodist olim V. I. Shlyaxovning o'quv adabiyotlarda nutqiy va leksik-grammatik materiallarni o'zaro muvofiqlashtirish muammolari haqidagi quyidagi

fikrlari fikrimizni asoslaydi: “O‘quv materiallarini tuzishdagi qiyinchiliklardan biri nutqiy va leksik-grammatik materiallarni o‘zaro muvofiqlashtirishdir. ...Agar mashg‘ulotlarda grammatika etakchilik qilsa va grammatik tizim mantiqiy izchillikda o‘rganilsa, bunda o‘quvchilarning nutqiy ehtiyojlari va ushbu nutqiy ehtiyojlarni ta‘minlash uchun zarur bo‘ladigan til materiallari o‘rtasida uzilish paydo bo‘ladi”.

Jumladan, X.Asalov o‘quvchilar nutqini o‘stirishda savol-javobdan foydalanishni quyidagi tarzda izchil rivojlantirib borishni tavsiya etgan edi: rasmga qarab savol berish, biror buyumni tasvirlash yuzasidan o‘tkaziladigan dialoglar, o‘rganilgan matn yuzasidan o‘tkaziladigan dialog, o‘qituvchi tomonidan belgilangan mavzu yuzasidan o‘tkaziladigan dialog, instsenirovka tipidagi dialog va h. k. .

Zamonaviy o‘qitish metodikasi o‘quvchilarda, talabalarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishni talab qilar ekan, demak, o‘quv topshiriqlari ham zudlik bilan shu talabga moslashishi kerak. O‘zbek tilining ona tili va davlat tili, shuningdek, ikkinchi til sifatida o‘qitilishida o‘quv topshiriqlari namunaga qarab ishlab chiqilgan savol va topshiriqlardan foydalaniladi. Aslida har bir savol, har bir topshiriq puxta o‘ylangan, belgilangan mezonlar asosida ishlab chiqilishi lozim. Savollardan foydalanish masalasida ham natijalar ijobiy emas, zero, savollar qanday vazifalarni bajara olishi haqida mulohaza qilib ko‘rish kerak bo‘ladi. Mashg‘ulot jarayonida savoldan, avvalo, o‘zlashtirilgan bilimning ko‘lami, sifati, yoki ma‘lumotga munosabati, tafakkur tarzini bilishda foydalanilish samarali bo‘ladi. Zamonaviy ta‘limda o‘quv vositalarini birgina vazifani bajarishga mo‘ljallash vaqtni isrof qilish bilan teng. Bugun o‘quv topshirig‘i, xususan, savol va topshiriqlar bir paytning o‘zida bir nechta ko‘nikma yoki malakani rivojlantira olishi kerak.

Dunyo til o‘qitish tajribasida nutqiy ko‘nikmalar to‘rtta. Tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalari bo‘lib ularni shakllantirish bo‘yicha beriladigan savol va topshiriqlar baholashga juda qulay tarzda ishlab chiqilgan. Ta‘limda baholashning qulay, samarali yo‘lini ishlab chiqilsagina uning foydasi bo‘ladi. Bilim ko‘nikma va malakani baholay olmadimi, demak, u topshiriq sifatsizdir. Shuning uchun ham savol va topshiriqlar ishlab chiqishda quyidagicha yondashish lozim:

1. O‘quv dasturlarida dars, mashg‘ulot mavzusini mantiqan to‘g‘ri qayd etish.
2. Ish rejalaridagi mavzularni ko‘zda tutilayotgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantira olish imkoniyatini hisobga olib tanlash.
3. Mavzuga doir o‘quv topshiriqlarni foydalilik darajasi bo‘yicha saralab olish.
4. Bugungi mavzuda, asosan, qanday o‘quv topshirig‘idan faol foydalanish mumkinligini to‘g‘ri tashxis qo‘yib olish.

5. Mashqlardan takrorlashni talab qiluvchi o'qish, yozish, gapirish ko'nikmalarini shakllantirishda foydalanish.

Savol ham o'quv topshirig'i hisoblanib, ona tili ta'limida hali alohida tadqiq etilmagan. Uning ona tili o'qitish metodikasida qanday ahamiyat kasb etishi, vazifasi, turlari, tasnifi, qo'llanilish o'rinlari va tarkibi o'rganilmagan. Mezonlari ishlab chiqilmagan. Metodik qo'llanmalarda, darsliklarda topshiriqlar bilan birga qo'llaniladi, ko'pincha, topshiriq bilan almashtiriladi, topshiriqning tarkibiga kiritib yuboriladi. Aslida metodikada savolning o'z o'ri va vazifasi bor. U topshiriqdan aniq farq qiladi. Savol masalasida ham shunday tasniflar qilinishi, ularning qo'llanilish o'rinlari belgilab olinishi zarur. Zero, ijtimoiy hayotda ham savol muhim ahamiyatga egadir. Javob savolning qanday berilganiga bog'liq. Demak, o'quvchilarga to'g'ri, o'rinli va maqsadli savol bera olsak, ularning bergan javobi jamiyat taraqqiyoti uchun qaysidir ma'noda foydali bo'ladi.

Shu o'rinda savol nima o'zi, degan savolga ham javob izlash, uni ilmiy-metodik tekshirib ko'rish zarurati paydo bo'ladi. O'zbek tilining izohli lug'atida savolga shunday ta'rif va tavsif berilgan: SAVOL – [a. – so'roq; iltimos] 1 Javob olish uchun aytiladigan gap, jumla; so'roq. – [Vasila Nazarovna:] Sen mening savolimga javob ber, kim u? O'. Hoshimov, Qalbingga quloq sol. – Juda yaxshi savol! – dedi Ibrohimov, – qani, bu savolga kim javob beradi? A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. Savol alomati – esk. So'roq belgisi. Savol alomati hamma vaqt «mi» dan keyin qo'yiladi desam, kuladi. A. Qahhor, Adabiyot muallimi. Etti og'ayni ham ko'kda nogahon Savol alomati bo'lib ko'ringay. A. Oripov.

Hayotda ham pedagogikada ham savolning vazifasi biri-ikkinchisidan unchalik uzoq emas. Biroq ona tili o'qitish metodikasi ta'limning boshqa sohalariga qaraganda muhimroq ahamiyat kasb etadi. Uning bu boradagi pedagogik yuki o'quvchi shaxsini fikrlashga o'rgatish, bilimlarini sinash, ko'nikmasini tekshirish kabilar bilan belgilanadi.

Adabiyot darslarida amalda o'quvchilarga beriladigan savollarning mazmuni umuman quyidagicha:

1. “Ota” hikoyasida qanday g'oya ilgari surilmoqda? Sizningcha, asar nima uchun “Ota” deb nomlangan?
2. Sizningcha, asarning qaysi o'rinlarida otalarga xos xususiyatlar yaxshi ochib berilgan? Qaysi o'rinlarda esa ota obrazini yanada kuchaytirish mumkin edi? Fikrlaringizni matn asosida dalillang.

3. Asarning boshi hamda so'ngidagi keksalik va bolalik, chol va bola, o'lim va hayot kabi qarama-qarshi tushunchalarning asar g'oyasini ochishdagi ahamiyatini matn asosida dalillang.

4. Asarda ota, ona, farzandlar nutqiga xos qanday jihatlarni kuzatdingiz? Bu o'ziga xoslik orqali qanday maqsad ko'zlangan deb o'ylaysiz?

5. "Ota" va "Vatan", "ota" va "millat" tushunchalarini asardagi cholning bola hayotini qutqarib halok bo'lishi lavhasi bilan bog'lab tushuntiring. Asarni cholning o'limi bilan yakunlash orqali muallif nima demoqchi? Asarni boshqacha yakunlash mumkinmidi?<sup>1</sup> Mazkur savollar o'quvchida badiiy asarga doir muayyan tushunchalarni beradi, biroq buning amaliy ahamiyati sezilmaydi. Bunda mashg'ulot natijasida oquvchilar til hodisalarini lingvistik jihatdan farqlash ko'nikmasiga ega bo'lishi mumkin.

"Adabiyot" darsliklarida ham savollardan deyarli shu maqsadda foydalaniladi:

1. "Gumbazdagi nur" dostonida qanday g'oya (yoki g'oyalar) ilgari surilgan? Gumbazdagi nur nimaning yoki kimning ramzi deb o'ylaysiz?

2. Amir Temur, Boyazid, Mirzo Ulug'bek kabi tarixiy obrazlar hamda mo'ysafi d, bola kabi zamonaviy timsollar asar g'oyasini ochishda qanday ahamiyat kasb etmoqda? Fikringizni matn asosida dalillang.

3. Tarix, ulkan inshootlar, o'n ikki me'mor haqida so'ylayotgan shoirning bir paytning o'zida ham shod bo'lishi va ham g'amgin kulishi sabablari nimada deb o'ylaysiz? Fikringizni dalillang.

4. Dostonning "Yur, ukam, qani, yur! Oldinda xayollar... Ortda maqbara..." kabi satrlar bilan tugashida qanday mazmun yashiringan? "Oftobni yamlayotgan" ufqda yana qanday "zavollar", "savollar" bo'lishi mumkin?

5. Sizningcha, dostonning qaysi bobi asar umumiy g'oyasini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etmoqda? Nega?<sup>2</sup>

O'quvchilar bilan samarali muloqot qilish uchun o'qituvchi barcha turdagi savollar bo'yicha malakaga ega bo'lishi kerak. Bu borada yetakchi va ochiq savollar, nihoyatda muhimdir, chunki ular o'quvchilarni fikrlashga o'rgatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 2-qism. – Toshkent: Sharq, 2015. – 176 b.
2. Ahmedov S., Qo'choqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua. 1-qism. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. – 160 b.
3. Алиев А. Мактабда ёзувчи услубини ўрганиш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 88 б.

<sup>1</sup> O'sha manba. 107-b.

4. Бобоев Т. Шеър илими таълими. – Тошкент, Ўқитувчи, 1996.
5. Долимов С., Убайдуллаев Х., Аҳмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – 448 б.
6. Эшонқул Н. “Мен”дан “мен”гача: адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Akademnashr, 2014. – 512 б.
7. Хусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 368 б.
8. Husanboyeva Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi va muammoli ta’lim. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 404 b.